Co-funded by the European Union

KONRAD ADENAUER STIFTUNG

YUKSALISH

MAQSADLI HUDUDLARDA FUQAROLIK JAMIYATI TASHKILOTLARI UCHUN MUVOFIQLASHTIRISH TADBIRLARI KONSEPSIYASI

(4-faoliyat)

100 COMMUNITY

FOYDALANILGAN QISQARTMALAR RO‘YXATI:

- **FSTP** (Financial Support to Third Parties) – Uchinchi tomonlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash;
- **FJT** – Fuqarolik Jamiyati Tashkilotlari;
- **NNT** – Nodavlat Notijorat Tashkiloti;
- **Kontent-hablar** – Universitetlar va texnikumlar bazasida media-kontent yaratish uchun ushbu loyihaning 9-faoliyati doirasida tashkil etiladigan markazlar.

1. Tadbir haqida umumiy ma’lumot

Parametr	Qiymat	Izoh
Tadbir nomi	Fuqarolik jamiyati sohaviy tashkilotlari o‘rtasida o‘zaro tajriba va muvaffaqiyat hikoyalari bilan almashish bo‘yicha mintaqaviy fuqarolik jamiyati muvofiqlashtirish forumlari.	Loyihaning A4 faoliyati doirasidagi 3 ta tadbirdan birinchisi.
Loyiha faoliyati	**2-Klaster:** Fuqarolik jamiyati tarmoqlarini kuchaytirish. **4-faoliyat.**	Hamkorlik va ilg‘or tajriba almashishga yo‘naltirilgan.
Muddati	2 kun (2025-yil 11-12-dekabr)	Ikki kun davomida mahalliy, hududlararo va mavzuga oid sessiyalarni qamrab oladi.
O‘tkazilish joyi	Qarshi sh., Nukus sh., Farg‘ona sh.	Mahalliy FJTlarning faol ishtirokini ta’minlash.
Maqsad	Maqsadli hududlarda FJT tarmoqlarini mustaҳkamlash, o‘zaro tajriba almashish, moliyaviy-huquqiy muammolar va media savodxonlikni muhokama qilish.	**Asosiy natijalar:** FJTlarning kuchli tarmog‘i va yangi hamkorlik aloqalari.

2. Asosiy maqsad va vazifalar

Asosiy maqsad: Qashqadaryo viloyatidagi fuqarolik jamiyati tashkilotlari (FJT)ning institutsional va sohaviy salohiyatini oshirish, mahalliy darajada rivojlanishning dolzarb muammolarini (ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar masalalarini) hal etishdagi rolini kuchaytirish, shuningdek, FJTlar, universitetlar va hukumat o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va bilim almashish uchun platforma yaratish.

Ushbu hududlar O‘zbekistondagi eng zich aholiga ega va yoshlar ulushi yuqori bo‘lgan hududlar hisoblanadi. Shu bilan birga, mintaqada ishsizlik, ayniqsa ayollar va yoshlar o‘rtasida, shuningdek, ekologik muammolar (suv resurslari taqchilligi) saqlanib qolmoqda. FJTlar ushbu muammolarni mahalliy darajada hal etishda muhim "ko‘prik" rolini o‘ynashi kerak, ammo ularning salohiyati ko‘pincha yetarli bo‘lmaydi.

Ko‘plab mahalliy FJTlar institutsional barqarorlik (moliyaviy hisobot, resurslarni jalb qilish, qonunchilikka rioya qilish) sohasida cheklangan bilim

va tajribaga ega. Bu ularning uzoq muddatli faoliyat imkoniyatlarini pasaytiradi va davlat grantlarini jalb qilish imkoniyatlarini kamaytiradi.

Loyiha maqsadiga (FJT tarmoqlarini kuchaytirish) erishish uchun bunday muvofiqlashtirish tadbirlari yagona hamkorlik platformasini yaratadi. Ushbu tadbirlar nafaqat Qashqadaryo tashkilotlarini birlashtiradi, balki ularni Farg‘ona va Qoraqalpog‘istonning ilg‘or tajribalari bilan bog‘laydi (hududlararo aloqa).

Tadbirning ikkinchi kuni ushbu loyihaning 4-faoliyati doirasidagi FSTP (Kichik grantlar) dasturi chaqirig‘ini e’lon qilish va tushuntirishga bag‘ishlanadi. Bu mahalliy FJTlarga loyiha mablag‘larini olish va o‘z tashabbuslarini amalga oshirishda bevosita texnik yordam ko‘rsatadi.

Asosiy vazifalar:

- Maqsadli hududlarda FJT faoliyatidagi xotin-qizlar huquqlari, yoshlar bandligi, ijtimoiy inklyuziya kabi dolzarb masalalar bo‘yicha mavjud "bo‘shliqlar"ni aniqlash;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo va Farg‘ona viloyatlarida amalga oshirilgan FJTlarning muvaffaqiyatli loyihalari va ilg‘or tajribalarini namoyish etish orqali tajriba almashishni rag‘batlantirish;
- FJTlar tashkiliy, moliyaviy hisobot va me’yoriy masalalarda duch keladigan qiyinchiliklarni yengib o‘tish uchun ekspert yechimlarini taqdim etish;
- Universitetlar, yuridik klinikalar, media va xususiy sektor vakillarini jalb qilish orqali hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratish;
- Ushbu loyihaning 6-faoliyati (kichik grantlar) bo‘yicha dasturga ariza topshirish maqsadlari, shartlari va texnik talablarini batafsil tushuntirish.

3. Ishtirokchilar va tadbir tarkibi

Ishtirokchilar guruhlari	Ishtirokchilar soni (taxminan)	Inobatga olinadigan jihatlar
Asosiy guruh	25-30	Qashqadaryo viloyatidagi sohaviy FJTlar (shu jumladan ayollar/yoshlar/media bilan ishlovchi NNTlar) va yuridik klinikalar.
Qo‘shimcha guruh	10-13	Har bir hududdan universitetlar/kollejlar, mahalliy hokimiyatlar, tahlil markazlari va xususiy sektor vakillari.

Maqsadli hududlardan ishtirokchilar	2	Boshqa ikki hududdan xotin-qizlar va yoshlar huquqlari bo‘yicha muvaffaqiyatli loyihalarni amalga oshirgan FJT vakillari (har biridan bir nafardan).
Ekspert/Moderator	3	2 nafar mavzuga oid ekspert va 1 nafar tadbir fasilitatori.
Loyiha jamoasi	3-5	“Yuksalish” harakati va Konrad Adenauer fondi loyiha jamoasi.

4. Tadbirning asosiy natijalari va strategik ahamiyati

Maqsadli hududlardagi FJTlar uchun muvofiqlashtirish tadbirlari nafaqat mahalliy FJTlarga bilim va ko‘nikmalar beradi, balki loyihaning umumiy zanjirida muhim bo‘g‘in va katalizator bo‘lib xizmat qiladi.

1. Kutilayotgan aniq natijalar:

Ikki kunlik tadbir davomida quyidagi aniq natijalarga erishiladi:

- FJTlar, universitetlar, yuridik klinikalarning 35-40 nafar vakilidan iborat **faol mintaqaviy tarmoq shakllantiriladi**;
- Ishtirokchilarning 70% dan ortig‘i institutsional barqarorlik, media savodxonlik va advokatsiya sohasida **yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladi** (tadbirdan keyingi qisqa so‘rovnoma orqali baholanadi);
- Ushbu loyihaning 4-faoliyati doirasida moliyalashtiriladigan FSTP (A6) grant dasturi shartlari to‘liq tushuntiriladi va kamida 15 ta FJT/hamkorlar guruhi ariza topshirish niyatini tasdiqlaydi;
- Universitetlar/yuridik klinikalar/xususiy sektor ishtirokida hamkorlik uchun 5-7 ta yangi g‘oya aniqlanadi va hujjatlashtiriladi.

2. Tadbirning strategik ahamiyati va boshqa faoliyatlar bilan bog‘liqligi

Strategik natijalar	Bog‘liq faoliyatlar	Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdagi roli
A6 (FSTP) uchun katalizator	**A6 (Kichik grantlar):** Tadbir FSTPga arizalar qabul qilishning rasmiy boshlanishi va muhim tushuntirish tadbiri hisoblanadi.	Mahalliy FJTlarning moliyalashtirish olish va o‘z loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlarini oshiradi, bu esa **resurs bazasini kengaytiradi**.

A9 (Kontent-hablar) bilan integratsiya	**A9 (Kontent-hablarni yaratish):** Universitet vakillari va yoshlarni jalb qilish orqali FJTlar yoshlar va Kontent markazlari bilan birgalikda yangi advokatsiya kontentini (video, podkastlar) yaratish mexanizmlarini o‘rganadilar.	Akademik sektor (universitetlar) va FJTlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi, **yoshlarni ijtimoiy jarayonlarga jalb qilishni rag‘batlantiradi**.
Hududlararo tajriba almashish	**A4 (3 ta muvofiqlashtirish tadbiri):** Hududlar o‘rtasida ilg‘or tajriba almashish orqali yagona **milliy FJT tarmog‘ini** yaratish, almashinuv amaliyotini institutsionalizatsiya qilish.	Mintaqaviy izolyatsiyani (yakkalanib qolishni) kamaytiradi va butun O‘zbekiston bo‘ylab umumiy amaliyot standartlarini joriy etishga yordam beradi.
Davlat va NNT o‘rtasidagi muloqot	**A7 (Mintaqaviy forum):** A7 ko‘p tomonlama forumlarida konstruktiv muloqot uchun asos yaratish maqsadida davlat va xususiy sektor vakillarini jalb qilish.	FJTlarning hukumat va biznes oldida hamkor sifatidagi tan olinishini kuchaytiradi.
Institutsional boshqaruvni mustahkamlash	FJTlarda boshqaruvni takomillashtirish, moliyaviy va huquqiy cheklovlar bo‘yicha ekspert maslahatlari.	FJTlarning barqarorligi va shaffofligini oshiradi, bu esa jamoatchilik tomonidan ularga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Xulosa: Qashqadaryo viloyatidagi muvofiqlashtirish tadbiri nafaqat mahalliy FJTlarning bilim va ko‘nikmalar bazasini oshiradigan, balki ularning amaliy imkoniyatlarini (FSTP grantlarini olish) va salohiyatini (A9 va boshqa hududlar bilan hamkorlik) kengaytiradigan strategik tadbirdir.

QASHQADARYO VILOYATI FUQAROLIK JAMIYATI TASHKILOTLARI FORUMI DASTURI

(barcha tadbirlar uchun taxminiy loyiha)

O‘tkazilish sanasi:	**2025-yil 18-19-dekabr**
O‘tkazilish joyi:	Qashqadaryo viloyati, Qarshi sh. (tender natijalariga ko‘ra aniqlashtiriladi)
Tashkilotchilar:	Konrad Adenauer fondi, “Yuksalish” harakati
Tadbir maqsadi:	Qashqadaryo viloyatidagi fuqarolik jamiyati tashkilotlarining institutsional va sohaviy imkoniyatlarini oshirish, mahalliy darajada rivojlanishning dolzarb muammolarini (ayniqsa yoshlar va xotin-qizlar masalalarini) hal etishdagi rolini kuchaytirish, shuningdek, fuqarolik jamiyati tashkilotlari, universitetlar va hukumat o‘rtasida o‘zaro hamkorlik va bilim almashish uchun platforma yaratish.

18-dekabr. Institutsional muammolar tahlili			
Vaqt	**Sessiya**	**Kontent va maqsad (batafsil)**	**Mas’ullar**
09:00 - 09:30	**Ro‘yxatdan o‘tish**	Ishtirokchilarni ro‘yxatga olish	Loyiha jamoasi
10:00 - 10:30	**Tadbirning ochilishi**	**Maqsad:** Tadbirning ahamiyatini belgilash **Mavzu:** 4-faoliyat maqsadi, 2-klaster vazifalari va O‘zbekiston rivojida fuqarolik jamiyati tashkilotlarining roli. **Kirish so‘zlari:** B.Bekmurodov – “Yuksalish” harakati raisi (oflayn) I.Brijatiy – Konrad Adenauer fondi loyiha menejeri (onlayn) **Moderator:** mahalliy fasilitator	“Yuksalish” harakati / Konrad Adenauer fondi
10:30 - 11:30	**1-sessiya** (3 soat, 15 daqiqa tanaffus bilan)	**1-sessiya:** **Mavzu:** Qashqadaryo viloyatidagi ijtimoiy muammolar hamda ularni hal etish bo‘yicha FJT takliflari va choralari. **Muhokamalar:**	Ekspert 1 / Fasilitator

		1) Qashqadaryo viloyatida xotin-qizlar va yoshlarning 3 ta asosiy muammosi tahlili; 2) Ushbu muammolarni hal etishda FJT samaradorligini oshirish yo‘llari. **Moderator:** jalb qilingan ekspert va mahalliy fasilitator	
11:30 - 11:45	**Tanaffus**		
11:45 – 13:00	**1-sessiyaning hududlararo qismi**	**Mavzu:** Ilg‘or tajriba – Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Farg‘ona misollari **Maqsad:** Muvaffaqiyatli keyslarni o‘rganish. 2 ta FJT (har bir hududdan bittadan) 15 daqiqalik taqdimot qiladi. **Moderator:** jalb qilingan ekspert va mahalliy fasilitator	QR/Farg‘ona FJT vakillari (Onlayn/video)
13:00 - 14:00	**Tushlik**		
14:00 - 15:30	**2-tahliliy sessiya** (1.5 soat)	**Mavzu:** FJTlarning institutsional barqarorligi: huquqiy va moliyaviy muammolar. **Kontent:** Hisobot berish tartibi, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, soliq imtiyozlaridan foydalanish. **Moderator:** jalb qilingan ekspert va mahalliy fasilitator	Ekspert 2 (Moliya/Huquq)
15:30 - 15:45	**Tanaffus (Kofe-breyk)**		
14:00 - 15:30	**Netvorking sessiyasi**	**Mavzu:** Hamkorlik uchun yangi ko‘priklar. Xususiy sektor, universitetlar va yuridik klinikalar bilan 3 ta guruhda hamkorlik uchun aniq loyihalarni ishlab chiqish. **Moderator:** jalb qilingan ekspert va mahalliy fasilitator	Fasilitator
19-dekabr. Mahorat darslari, kreativlik va grant imkoniyatlari			
Vaqt	**Sessiya**	**Kontent va maqsad (batafsil)**	**Mas’ullar**
2-sessiya			
09:00 - 10:30	**1-mahorat darsi** (1.5 soat)	**Mavzu:** Media savodxonlik va samarali kontent. Ijtimoiy tarmoqlardagi trendlar, ijtimoiy muammolarni yoritish uchun raqamli stoytelling, infografika va qisqa roliklar yaratish. **Moderator:** jalb qilingan ekspert va mahalliy fasilitator	Ekspert 1 (Media)
10:30 - 10:45	**Tanaffus**		
10:45 - 12:15	**2-mahorat darsi**	**Mavzu:** Advokatsiya kampaniyalarini rejalashtirish.	Fasilitator

		Kontent: Muammoni aniqlash, maqsadli auditoriyani belgilash, asosiy xabarlarni yaratish va samarali kampaniya taktikalarini ishlab chiqish. **Moderator:** jalb qilingan ekspert va mahalliy fasilitator	
12:15 - 13:15	**Tushlik**		
13:15 - 14:45	**FSTP grantini e'lon qilish**	**Mavzu:** Kichik grant (A6) – Imkoniyatlar. **Kontent:** Grant maqsadi (yoshlar va xotin-qizlar ishtiroki), loyiha turlari, texnik va moliyaviy talablar, ariza topshirishdagi asosiy xatolar. **Moderator:** jalb qilingan ekspert va mahalliy fasilitator	Konrad Adenauer fondi
14:45 - 15:00	**Tanaffus (Kofe-breyk)**		
15:00 - 16:30	**Savol-javoblar, yakunlash**	**Maqsad:** FSTP bo'yicha aniqlashtirishlar. **Yakunlash:** Tadbir yakunlarini sarhisob qilish, keyingi qadamlar. **Moderator:** jalb qilingan ekspert va mahalliy fasilitator	Barcha mas'ullar